



## O'ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Xurshida Abduraxmonova,

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim muassasasi

2-bosqich magistratura talabasi

Ilmiy rahbar: M. Saparniyazova,

f.f.f. doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'zbek antroponimlarini semantik va sotsiolingvistik jihatdan tahlil qilish, antroponimlarning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan mavjud motivlarni aniqlash, ularning ismlar ma'no strukturasi shakllanishida tutgan o'rni va rolini belgilash hamda jamiyatdagi ma'naviy taraqqiyotning ismlar semantikasiga ta'siri masalalarini tadqiq qilishni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, sotsiolingvistika, antroponimlar, lingvomadaniyat, etnomadaniyat, til va jamiyat, ismlar tasnifi, semantika, lisoniy va nolisoniy jihatlar, atoqli otlar.

**Abstract:** This article focuses on the semantic and sociolinguistic analysis of Uzbek anthroponyms, identifying the underlying motivations behind their emergence, determining their role and significance in shaping the meaning structure of names, and examining the influence of societal spiritual development on the semantics of personal names.

**Key words:** linguistics, sociolinguistics, anthroponyms, linguoculture, ethnoculture, language and society, classification of names, semantics, linguistic and extralinguistic aspects, proper nouns

Dunyo tilshunosligida har bir tilda onomastik tizim birliklari tadqiqi dolzarb muammolardan sanaladi. Onomastik birliklar etnos timsolida dunyoning mavjud modelini belgilashga asos bo'ladi. Ma'lum tilga xos nomlar (onimlar) zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biridir. Onimlar nafaqat nominativ ma'noning tashuvchisi, balki shuningdek, hududning tili, geografiyasi va tabiati, tarixi va urf-odatlar haqida juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda ilm-fanning barcha sohalarida bo'lgani singari o'zbek tilshunosligida ham chuqur ilmiy asoslangan tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan atantroponimlar tizimi, bu tizimga mansub birliklarning lisoniy jihatlarini davr talablari darajasida o'rganish borasida ham qator ishlar qilinmoqda. Jumladan, o'zbek tili birliklari lingvomadaniy aspektda chuqur tadqiq etilmoqda. Shunga qaramay bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, tilshunosligimizda hozirgacha antroponimlar tizimi alingvokulturologik jihatdan monografik planda maxsus o'rganilmagan. Respublikamiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2019- yil 21- oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni milliy tilimizni zamonaviy tadqiq usullarida chuqur o'rganishni taqozo qiladi. Bu jihatdan, o'zbek tilidagi atoqli otlar tizimini antropotsentrik aspektda tadqiq etish dolzarb muammo hisoblanadi.



O'zbek ismlari haqida kitoblar yozilgan. Ularning aksariyati filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov qalamiga mansubdir. Ustozimizning o'zbek ismlarini to'plash, ularni lug'at holiga keltirish borasidagi ishlari juda katta ahamiyatga molik. "O'zbek ismlari ma'nosi" lug'atida 14600ga yaqin ismlar to'plangan va izohlangan. Biroq ishda muallif tomonidan o'rinli ta'kidlanganidek, "ushbu lug'atda o'zbek tilidagi barcha ismlar va ism shakllarini qamrab ololgan emas"[1;12].

Bugungi globallashuv sharoiti millatning eng muhim qadriyatlaridan biri bo'lmish kishi ismlarini millat tili lug'at fondi, milliy va diniy qadriyatlar asosida va ularga mos tarzda muntazam boyitib borilishini taqozo qiladi. Ism masalasi shu qadar muhimligidan Yevropaning ba'zi davlatlarida tarixiy-milliy ismlar qo'yish, boshqa xalqlardan ism olmaslik haqida alohida qonunlar qabul qilingan. Shuningdek, Turkiyada Mustafo Kamol Otaturk tomonidan o'z xalqi uchun ismlar borasidagi islohotlari tarixdan ma'lum va bugun dunyo maydonida turklarning ismi orqali ularning turk ekanligini tanib olish mumkin.

Bu boradagi e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan yana biri bu tilning an'anaviy antroponimiya fondini asrash, uning kamayishiga qarshi kurashish masalasidir.

Ism berish rasm-rusumlari, buning qadimiy va an'anaviy ko'rinishlariga e'tibor qaratish, nomlash motivlariga to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zbek ismlarining boy fondini saqlash va asrashga intilish lozim. Jahon tilshunosligida antroponimlarda shaxsga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi, ayniqsa, ularning yuzaga kelishida til sohiblarining dunyoqarashi, ruhiyati, voqelikka munosabati kabi masalalarni jiddiy o'rganish turli tillardagi atoqli otlarda kuzatiluvchi milliy-madaniy o'ziga xoslikni aniqlashga imkon yaratadi. Milliy tilshunosliklarda antroponimlar tizimini lingvomadaniy aspektida tadqiq etish milliy tillar onomastikasini yana-da takomillashtirishga, bunday birliklardagi semantik o'zgarishlarni aniqlashga, mazkur birliklarning etimologiyasi bilan bog'liq xato va chalkashliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi[2;23].

Kishilarning ismi, nasabi, familiyasi va laqabini bildiruvchi so'zlar fan tili bilan antroponimlar deyiladi. Ularning majmuasiga va til fanining shu majmuani o'rganuvi sohasiga nisbatan antroponimiya atamasi ishlatiladi. Kishi ismlari, familiya va nasablari, garchand etnolingvistikaning antropologiya tarmog'i obyektiga sanalsa-da, uning sosiolingvistikaga aloqador tomoni ham yo'q emas. Chunki kishilarga qo'yiladigan ismlar va ularning nolisoniy asoslari insoniyat tarixining har bir davrida o'ziga xos ijtimoiy tomonlari bilan farq qiladi. Unda bolaga qo'yiladigan ismda har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy olami in'ikos etadi. Chunonchi, kishini nomlashning eng qadimiy shakli urug' va qabilalarning

nomlari bo'lgan. Dunyoga kelgan inson farzandiga uni boshqa shaxslardan farqlab ajratish maqsadida ism qo'yilgan. Bu jahonning barcha xalqlari uchun urfga aylangan odatdir. Ism qo'yish ehtiyoji va ismlarning paydo bo'lishi bilan birga, har bir xalqda ularning moddiy hamda ma'naviy sharoitlariga mos ravishda ism qo'yish odatlari, rasm-rusumlari, udumlari ham tug'ilgan. Ismlar har bir davrning hayotiy talablarini, intilishi va orzularini, shuningdek, falsafiy va diniy aqidalarini o'zida in'ikos etgan. Chunonchi, ibtidoiy jamoa va urug'chilik davrlarida berilgan ismlarda mardlik, qahramonlik, abjirlik tushunchalari, ilohiylashtirilgan



turli tushunchalar tasavvurlar o'z ifodasini topgan. Masalan, bu davrda turkiy xalqlarda Oyarig' nurli oy), Oydanarig' (oydek nurli), Oykun (yorug' kun), Oyqanot (oy qanoti), Kuchbars, Alak, Ayas, Alp aya, Alp Er Tunga, Qutlug' tagin, Chag'ribek, Chug'lan, Tangriqul, Tangriberdi, Bo'ri, Bo'riboy singari ismlar qo'yish moda bo'lgan.

Arablarning O'rta Osiyoni istilo etgunga qadar qo'yilgan ismlarda go'zallik, o'ktamlik, chevarlik tushunchalari aks etgan. Kishilarga qo'yilgan Eshboy, Uyto'l, To'rtoy, Ulg'ay, Unsun, Tursun, Arig'(go'zal ma'nosida), Oyarig', Oyxon, Erdon, Tirkash, Ergash, Tolmas, Totlik, Toshbek, To'xtamish, Tilov, Quvondiq, Ilash, Suyun, Ulug'jon, O'sarboy, Qanotboy, Oygul, Alpon, Yo'lbars, Yursin, Yursinoy, Kumushoy, Oppoq, Oyyuz, Qilichbek, Burgutboy, Lochin va boshqalar buning dalilidir. Arablar istilosidan keyin O'rta Osiyo xalqlarining turkiycha mahalliy nomlari "islomona" arabcha ismlar bilan almashtirila boshladi. Islomda chaqaloqni nomlashga oid ba'zi qonun-qoidalar va ko'rsatmalar mavjud bo'lib, chaqaloqqa ism qo'yishda ularga rioya qilish shart sanalgan. Shulardan biri bola qulog'iga ALLOH nomi bilan azon aytish bo'lgan. Qolaversa, Islom aqidasi ko'ra, bolaga "Allohning go'zalligi" kabi go'zal ism tanlanishi talab qilingan. Ismlar Islom ilmidan yaxshi xabardor mulla va eshonlar tomonidan tanlangan va u azon bilan bola qulog'iga yetkazilgan. Islomda kishilarga qo'yiladigan laqablar, kulgili va nosha'riy nomlar qoralangan va man etilgan. Chunki Islom dini shaxsning nomi kishining hayoti va taqdirida muhim rol o'ynaydi, yaxshi ism odamga omad, "xunuk" va nomaqbul ism esa baxtsizlik keltiradi, deb hisoblagan[3;56].

Islom dini va uning aqidalari asrlar davomida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy va ma'naviy hayotiga chuqur singib bordi. Bu hol bolaga ism qo'yish jabhasida ham ustuvorlik qildi. Bolaga Islom dinining muqaddas, xosiyatli g'oyalarini ifoda etuvchi quyidagi ismlarni qo'yish urfga aylandi: Sayid, Sayidbek, So'fi, So'fiqul, So'fiqiz, Vali, Valiya; Shayx, Shayxulla, Xo'ja, Xo'jabek, Xo'janiso; Hoji, Hojiboy, Hojiniso; Qori, Qoriya, Qoriyaxon; Eshon, Eshonxo'ja, Eshonoy; Maxsum, Maxsuma; Imom, Imomqul, Imomnazar, Imomiddin; Islom, Islomiddin, Islomqul; A'lam, Darvesh, Darveshali; Shohid, Shohida; Qalandar, Musulmon, Musulmonqul; G'oz, G'oziboy, G'ozixon; Tilovatxon, Tumorxon; Zohid, Zohida; Devona, Devonaqul; Zikriyo, Namoz, Namozboy, Namozbuvi; Ummat, Ummatqul, Ummatali, Tavfiq, Jannat, Jannatoy, Jannatxon; Kavsaroy, Kavsarxon; Madina, Arofat va boshqalar. Yuqorida ism qoyishning davr ruhi bilan bog'lanishi haqida so'z yuritildi. Darhaqiqat, shunday. Sho'rolar davrida, ayniqsa, o'tgan asrning 30 va 40- yillarida o'zbek ismlari tizimida o'sha davr ruhini aks ettiruvchi Kommuna, Sovet, Venera, Mars, Telman, Ernst, Mels (Marks, Engels, Lenin, Stalin), Sveta, Svetlana, Geroy, Komissar singari nomlar paydo bo'la boshlagan edi[3;58].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'zbek antroponimlarining sotsiolingvistik xususiyatlari bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Tadqiqot davomida shunga guvoh bo'lish mumkinki, o'zbek antroponimlar lug'ati o'zbek tili tarixi bosqichli davrlarida shakllanib kelgan va ushbu davrlarning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborni o'ziga jalb qilmay qolmaydi.

#### References:



1. Begmatov E. O'zbek antroponimikasining leksik-semantik xususiyatlari // O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent, Fan, 1965.
2. Begmatov E. O'zbek ismlari. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.
3. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
4. Husanov N. XV asr o'zbek adabiy yodnomalaridagi antroponimlarning leksiksemantik va uslubiy xususiyatlari. DDA. – Toshkent, 1998.
5. Husanov N.A. XV asr o'zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. – Toshkent, 2000.
6. Jabborov E. Abdulg'oziy asarida berilgan antroponimlar etimologiyasi haqida // Onomastika (Ilmiy maqolalar to'plami). – Samarqand, 2014. – 2-son.

